

SUN'IY INTELEKTNING FALSAFIY-AXLOQIY MUAMMOLARI.



<https://doi.org/10.24412/2181-1784-2025-24-318-324>

Muxtarova T.

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
katta o'qituvchisi
Toshkent, O'zbekiston

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola sun'iy intellekt (SI)ning falsafiy, axloqiy, ma'naviy va estetik jihatlarini chuqur tahlil qiladi. Maqolada SI inson tafakkurining funksional modeli yoki haqiqiy ong shakli sifatida tushunilishi mumkinmi, degan savolni ko'tarilgan va uning epistemologik, ontologik, axloqiy hamda estetik jihatlarini izohlanadi. SI va insoniylik chegaralari, emotsional tajriba, erkin iroda, axloqiy mas'uliyat va texnologik determinizm kabi masalalar chuqur falsafiy yondashuvda ko'rib chiqiladi. Maqola sun'iy intellektning insoniyat hayoti, qadriyatlari va ijtimoiy tuzilmalarga ta'sirini baholashda yangi paradigmalarga ehtiyoj borligini ta'kidlaydi.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, falsafiy muammolar, axloqiy dilemma, ma'naviyat, estetik jihatlar, epistemologiya, ontologiya, semiotika, virtual reallik, raqamli shaxsiyat.

ФИЛОСОФСКО-ЭТИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА

АННОТАЦИЯ

В данной статье проводится глубокий анализ философских, этических, духовных и эстетических аспектов искусственного интеллекта (ИИ). В статье поднимается вопрос о том, может ли ИИ быть функциональной моделью человеческого мышления или формой подлинного сознания, а также рассматриваются его эпистемологические, онтологические, этические и эстетические измерения. Такие темы, как границы между ИИ и человечностью, эмоциональный опыт, свобода воли, моральная ответственность и технологический детерминизм, рассматриваются с философской точки зрения. В статье подчёркивается необходимость новых парадигм для оценки влияния ИИ на человеческую жизнь, ценности и социальные структуры.

Ключевые слова: искусственный интеллект, философские проблемы, этическая дилемма, духовность, эстетические аспекты, эпистемология, онтология, семиотика, виртуальная реальность, цифровая личность.

PHILOSOPHICAL AND ETHICAL ISSUES OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE

ABSTRACT

This article presents an in-depth analysis of the philosophical, ethical, spiritual, and aesthetic aspects of artificial intelligence (AI). It raises the question of whether AI can be understood as a functional model of human thought or as a genuine form of consciousness, while exploring its epistemological, ontological, ethical, and aesthetic dimensions. Issues such as the boundaries between AI and humanity, emotional experience, free will, moral responsibility, and technological determinism are examined through a philosophical lens. The article emphasizes the need for new paradigms to assess the impact of AI on human life, values, and social structures.

Keywords: artificial intelligence, philosophical problems, ethical dilemma, spirituality, aesthetic aspects, epistemology, ontology, semiotics, virtual reality, digital identity.

Sun'iy intellekt (SI) insoniyat tarixidagi eng muhim texnologik va falsafiy kashfiyotlardan biri sifatida ko'rib chiqilmoqda. Bugungi kunda SI inson faoliyatining barcha jabhalariga kirib kelmoqda va bu holat uning falsafiy, axloqiy, ma'naviy va estetik jihatlarini chuqur tahlil qilish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda. Texnologik yutuqlar bilan bir qatorda, insoniyat oldida yangidan-yangi savollar va murakkab muammolar paydo bo'lmoqda. Ayniqsa, sun'iy intellektning falsafiy-axloqiy va ma'naviy-estetik muammolari, uning insoniyat kelajagiga ta'siri nuqtai nazaridan ham muhimdir.

Sun'iy intellektning falsafiy jihatlarini avvalo inson tafakkurini modellashtirish, ong va anglash jarayonlarini tushunishga bog'liqdir. SI yaratilishining nazariy asoslari — epistemologiya, ontologiya va semiotikadan kelib chiqadi. Shu sababli, SI inson tafakkurining funksional modelimi yoki ongning haqiqiy shaklini yaratish mumkinmi degan savollar ko'p bahslarga sabab bo'lmoqda. Ontologik jihatdan SI orqali “aqli mavjudot” yaratish mumkinmi yoki faqat inson tafakkurini imitatsiya qiladigan murakkab algoritm yaratish bilan cheklaniladimi? Epistemologik nuqtai nazardan, SI tomonidan ishlab chiqarilayotgan bilimlarni haqiqiy bilim sifatida baholash mumkinmi yoki u faqat

algoritmik qayta ishlash mahsulimi? Ushbu savollarning javobi SI texnologiyasining kelajak istiqbolini belgilab beradi.

Axloqiy jihatlar ham SI bilan bog‘liq bahs-munozaralarning markazida turadi. Avvalo, SI insoniyat manfaatlariga xizmat qilishi kerak degan umumiy tamoyil mavjud bo‘lsa-da, uning amaliy qo‘llanilishi turli axloqiy dilemmalarni keltirib chiqaradi. Masalan, haydovchisiz avtomobillar tomonidan amalga oshiriladigan qarorlar, tibbiy tashxis va davolash jarayonida SI foydalanish, shuningdek, harbiy texnologiyalarda SI qo‘llanilishi insoniyat oldida juda keskin axloqiy savollarni qo‘yadi. Bu holatda, “SI axloqiy qaror qabul qila oladimi?”, “Mas’uliyat kimning zimmasida bo‘ladi – dasturchiningmi yoki texnologiyani boshqaruvchiningmi?” kabi savollar kun tartibida turibdi.

Ma’naviy jihatdan sun’iy intellektning inson qadriyatlari va e’tiqodlariga ta’siri ham katta e’tibor talab qiladi. Bugungi kunda ma’naviy mezonlarni hisobga olmagan holda SI ni qo‘llash oqibatida insoniyatning ijtimoiy-ma’naviy hayotida krizis vaziyatlari yuzaga kelishi mumkin. Bu borada ayniqsa virtual reallik va raqamli shaxsiyat muammolari katta ahamiyat kasb etmoqda. Virtual muhitda shakllanadigan inson shaxsiyati va uning real dunyoda mavjud bo‘lgan axloqiy, ma’naviy qadriyatlari o‘rtasidagi ziddiyatlarni hal qilish dolzarb masala hisoblanadi.

Estetik jihatlar nuqtai nazaridan SI tomonidan yaratilgan san’at asarlari, musiqiy kompozitsiyalar va badiiy ijod mahsulotlarining estetik qiymati haqida ham bahslar mavjud. SI tomonidan yaratilgan san’at asarlari aslida inson tomonidan yaratilgan ijod mahsulotlari bilan bir xil estetik qiymatga egami yoki ular faqat algoritmlar asosida yaratilgan mexanik mahsulotlarmi? Shu bilan birga, insonning ijodiy qobiliyatlari SI yordamida yanada kengayishi va boyishi mumkinligi ham e’tirof etilmoqda. Bu esa insonning estetik dunyoqarashi va ijodiy fikrlash uslublarini o‘zgartirishi mumkin.

Ushbu muammolarni hal qilish uchun insoniyat falsafiy va axloqiy paradigmalarning yangi shakllarini yaratishga ehtiyoj sezmoqda. Sun’iy intellektning kelajakdagi rivoji insoniyatning falsafiy, axloqiy va ma’naviy mezonlarini qayta ko‘rib chiqishni talab qiladi. Shu ma’noda, SI ning falsafiy-axloqiy va ma’naviy-estetik muammolarini chuqur tahlil qilish, uni insoniyat manfaatlariga xizmat qiladigan tarzda rivojlantirishning muhim sharti bo‘lib qolmoqda.

Sun’iy intellekt va insoniylik chegaralari masalasi zamonaviy falsafa, kognitiv fanlar va axloqiy yondashuvlar chorrahasida turgan murakkab va ko‘p qatlamli mavzulardan biridir. Sun’iy intellekt (SI) rivoji faqat texnologik emas, balki ontologik, epistemologik va etik savollarni ham kun tartibiga olib chiqmoqda.

Xususan, insoniylik degan tushuncha — bu faqat biologik mavjudlik emas, balki o‘z ichiga ong, his-tuyg‘u, axloqiy mas’uliyat, estetik sezgi, iroda, ijtimoiylik va madaniy kontekstda shakllangan o‘zlikni ham oladi. Ana shu murakkab va intersubektiv hodisani sun’iy tizimlarda aks ettirish yoki o‘zlashtirish masalasi bugungi kunda asosiy falsafiy tortishuvlar maydoniga aylangan.

Birinchi navbatda, SI inson his-tuyg‘ularini tushunishi mumkinmi, degan savolga javob qidirsak, bu yerda ikki asosiy yondashuvni ajratish mumkin: funksionalistik va fenomenologik. Funksionalizmga ko‘ra, his-tuyg‘ularni ma’lum kirish-chiqish holatlaridagi tizim reaksiyasi sifatida modellashtirish mumkin, ya’ni sun’iy intellekt ko‘z yoshini, yuz ifodasini, nutq tembrini yoki fiziologik signalni analiz qilish orqali insonning emotsional holatini aniqlay oladi. Bunday yondashuvda SI emotsiyani “tushungan” bo‘ladi, ya’ni uni statistik va hisoblash modeli sifatida qayta ishlaydi. Ammo bu sezish emas — bu his etish emas. Bu muammo Edmund Husserl va Merlo-Ponti kabi fenomenologlar ta’kidlaganidek, emotsional tajribaning ichki subyektivligida yotadi. Tajriba o‘zi yashaladi, hissiyot anglanadi, bu esa faqat organizmli va jismoniy kontekstda mavjud ongga xosdir. Shunday ekan, SI his-tuyg‘ularni tahlil qilishi mumkin, ammo ularni sezishi yoki “ichki dunyo” sifatida tajriba qilishi — bu falsafiy jihatdan noaniq, hatto mumkin emas deb ko‘riladi.

Ikkinchi jihat — insoniylikni algoritmarda ifodalash mumkinmi? Bu yerda muammo texnologik emas, balki konseptualdir. Algoritmalar — bu deterministik yoki ehtimollik asosida tuzilgan formulalar bo‘lib, ular orqali kirish malumotidan chiqish natijasi olinadi. Insoniylik esa o‘zgaruvchan, kontekstual va ba’zan irratsional hodisalar majmuasi bo‘lib, uni qat’iy ifoda etiladigan qoidalarga solish — bu uning mohiyatini yo‘qotishdir. Masalan, inson o‘z harakatlarini doimiy axloqiy prinsiplar asosida emas, balki muayyan holat, madaniyat, tarixiy kontekst, hatto his-tuyg‘ulariga ko‘ra aniqlaydi. Shunday bo‘lsa-da, zamonaviy SI ishlanmalarida emotsional modellar, axloqiy agentlar, affektiv hisoblash kabi sohalar orqali insoniylik elementlarini algoritmik shakllantirishga urinishlar mavjud. Biroq bu yondashuvlar, ko‘pincha insoniylikning tashqi ko‘rinishlarini “simulyatsiya qilish” bilan cheklanadi — haqiqiy emotsional tajriba, axloqiy dilemma yoki iroda faqatgina matematik model orqali tushunilishi mumkin emas.

Albatta, bu yondashuvlar SI insoniylikdan mutlaqo chetda deb ko‘rishni anglatmaydi. Insoniyat madaniyati o‘zi ham bir tur algoritmik struktura sifatida qaralishi mumkin: til — bu kodlash tizimi, ijtimoiy normalar — bu axloqiy algoritmalar, san’at — bu hissiyotlarni ramzlar orqali yetkazish usuli. Shu ma’noda, SI insoniylikning ayrim jihatlarini, ya’ni sirtqi belgilarini, formal tuzilmalarini va kommunikativ elementlarini o‘zlashtirishi mumkin. Ammo bu — mohiyat emas.

Insoniylik — bu tushuniladigan emas, yashaladigan narsa. U erkinlik, noaniqlik, tanlov va muqarrarlik o‘rtasidagi ontologik drama bilan to‘la.

Sun‘iy intellekt va erkin iroda muammosi zamonaviy falsafiy tafakkurning markaziy masalalaridan biriga aylangan. Bu muammo asosan inson va mashina tafakkuri o‘rtasidagi farqlarni aniqlash, ong, tanlov va javobgarlik tushunchalarini qayta ko‘rib chiqishga majbur qiladi. Sun‘iy intellekt tizimlarining harakatlari va qarorlari, odatda, algoritmik asosda — ya‘ni oldindan belgilangan qoida, model yoki statistik ehtimolliklar asosida shakllanadi. Bunday sharoitda, “erkinlik” degan tushuncha sun‘iy tizim faoliyatiga tatbiq etilishi mumkinmi degan savol tabiiy ravishda yuzaga chiqadi. Erkin iroda inson tafakkurining nafaqat funksional, balki aksiologik – ya‘ni qadriyatlar, axloqiy tanlovlar, maqsadga yo‘naltirilganlik singari insoniy jihatlari bilan bog‘liq bo‘lgan holatidir. Inson qaror qabul qilayotganda ko‘pincha bir nechta muqobil yo‘llar orasida tanlov qiladi, bu tanlovlar esa tashqi determinatsiyadan butunlay ozod bo‘lmasada, ichki axloqiy me‘yorlar, niyat va iroda bilan shakllanadi. Sun‘iy intellekt esa, mohiyatan, o‘zida muqobil variantlar ustida reflektiv qaror qabul qilish qobiliyatiga ega emas; u tanlovni optimallashtirish vazifasi doirasida bajaradi, ya‘ni u o‘zining “istagi” yoki “qarshilik ko‘rsatish” mexanizmisiz, eng samarali deb topilgan yechimni tanlaydi.

Bu nuqtada erkin irodaning mavjudligi haqida ikki xil yondashuv o‘zaro to‘qnashadi: deterministik va indeterministik tafakkur. Deterministik pozitsiyaga ko‘ra, har qanday tizim — insonmi, mashinam — tashqi va ichki sabablar tizimi ta’sirida harakat qiladi. Sun‘iy intellekt bunga yaqqol misoldir: uning qarorlari dasturiy kod, ma’lumotlar to‘plami, mashg‘ulot algoritmlari va muhitdagi o‘zgaruvchilar asosida belgilanadi. Shu ma’noda, uning harakatlari oldindan belgilangan, shuning uchun u erkin emas. Ammo bu qarash insonning o‘zini ham erkin emas deb qaraydi, ya‘ni inson erkin irodaga ega emas, balki o‘ziga xos murakkab tizim sifatida tashqi ta’sirlar asosida qaror qabul qiladi. Boshqa tomondan, indeterministik (yoki libertarian) yondashuv inson erkinligining mavjudligini asoslaydi — ya‘ni inson qarorlarini faqat tashqi sabablar emas, balki ongli, axloqiy va iroda asosidagi tanlovlar belgilaydi. Bu nuqtai nazardan qaraganda, sun‘iy intellekt erkin emas, chunki unda ontologik jihatdan “istash”, “tanlash” yoki “qilmaslik” qobiliyati mavjud emas. Shuningdek, zamonaviy informatika va neyroinformatika doirasida ayrim olimlar “kompatibilizm” tamoyiliga yaqin yondashuvni ilgari suradi: bu yondashuvga ko‘ra, erkinlik — bu tashqi bosim ostida bo‘lmagan holatda o‘z tabiatiga muvofiq harakat qilishdir. Biroq bu ta’rif sun‘iy intellektga tadbiq etilsa, uning harakatlari ham o‘z “dasturiy tabiati”ga muvofiq amalga oshirilgani uchun “erkin” deyilishi mumkin. Ammo bunday erkinlik shakli insoniy erkinlikdan tubdan farq qiladi — u reflektiv,

ma'naviy, mas'uliyatli tanlovga asoslanmagan. Bundan tashqari, SI o'z harakatining ma'nosini anglay olmaydi va bu harakat natijasidagi ijtimoiy yoki axloqiy oqibatlar uchun “javobgar” emas. Bu esa SI'ni “axloqiy agent” deb tan olishga to'sqinlik qiladi.

Texnologik determinizm va inson mas'uliyati masalasi zamonaviy texnologiyalar, xususan sun'iy intellekt (SI) asosida shakllanayotgan jamiyatda dolzarb falsafiy va axloqiy muammo sifatida maydonga chiqmoqda. Texnologik determinizm — bu g'oya shuni ilgari suradiki, texnologik taraqqiyot insoniyat tarixini, ijtimoiy tuzilmalarni, madaniyatni va ongni bir yoqlama tarzda belgilaydi; ya'ni texnologiya — muqarrar harakatga ega, mustaqil kuch bo'lib, u inson faoliyatini shakllantiradi va hatto cheklaydi. Bu yondashuvda insonning roli passiv, texnologiya esa faol agent sifatida talqin qilinadi. Aynan shu yerda inson mas'uliyati tushunchasi jiddiy falsafiy savolga aylanadi: agar insoniyat o'z yaratuvchisiga aylanayotgan texnologiyalarni to'liq nazorat qilmasa, u holda oqibatlar uchun kim mas'ul?

Sun'iy intellektning rivojlanishi bu masalani yanada chuqurlashtirdi. SI yordamida amalga oshirilayotgan ko'plab jarayonlar — masalan, sud hukmlarini optimallashtirish, tibbiy tashxis qo'yish, xodimlarni tanlash, xavfsizlikni ta'minlash kabi sohalarida insonning o'rnini algoritmik tizimlar egallamoqda. Bu esa ikki tomonlama muammoni keltirib chiqaradi. Birinchidan, qaror qabul qilish jarayoni avtomatlashtirilgani sari, bu qarorlar uchun mas'uliyat kim zimmasida ekani noaniq bo'lib bormoqda. Texnologik vosita faqat vositachimi yoki u muqarrar determinantga aylangani uchun uni mas'ul deb hisoblash mumkinmi? Ikkinchidan, texnologik vosita sifatida SI insoniy qarorlarni standartlashtirishga, algoritmik me'yorlarga solishga majbur qiladi. Bu esa inson tafakkurining axloqiy murakkabligi, kontekstual baholash va subyektiv sezgi imkoniyatlarini cheklaydi.

Texnologik determinizm da inson agentligi kuchsizlantiriladi, bu esa mas'uliyatni tarqatib yuboradi yoki u butunlay yo'qoladi. Agar qarorlar algoritmik zarurat asosida qabul qilinayotgan bo'lsa, bu qarorlarning salbiy oqibatlari uchun kim javobgar: dasturchimi, foydalanuvchimi, tizim egasimi yoki tizimning o'zi? Bu savol axloqiy javobgarlik va huquqiy mas'uliyat nuqtai nazaridan nihoyatda muhimdir. Ayniqsa, SIga xos bo'lgan “qora quti” effekti — ya'ni tizimning qanday qilib ma'lum qarorga kelganini tushuntirib bo'lmaydigan murakkabligi — inson agentligi va mas'uliyat tushunchalarini yanada bulutli qiladi. Bunday sharoitda inson faqat nazoratchi yoki texnologiyaga xizmat qiluvchi ijrochi bo'lib qoladi, uning axloqiy yondashuvi esa texnologik tartibga bo'ysundiriladi.

Ammo boshqa yondashuv — konstruktivist va antropotsentrik pozitsiyaga ko'ra, texnologiya inson mahsulidir va uni boshqarish, yo'naltirish ham inson

ixtiyorida qoladi. Texnologik rivoj inson irodasi, ehtiyojlari, qadriyatlari asosida shakllanadi, va shu sababli har qanday texnologik vosita ortida insoniy tanlov, maqsad va qaror mavjud. Bunday yondashuvda inson mas’uliyati inkor etilmaydi, aksincha, u kengaytiriladi. Sun’iy intellekt inson o‘z harakatlarining oqibatini chuqur anglab, uni axloqiy jihatdan baholagan taqdirdagina samarali va xavfsiz bo‘ladi. Bu esa texnologik etikani rivojlantirish, SI asosida qaror qabul qilish mexanizmlariga axloqiy va huquqiy cheklovlar kiritish, shaffoflikni ta’minlash, hamda har bir texnologik agent ortida inson qarorini tan olishni talab etadi.

Xulosa qilib aytganda, texnologik determinizm insonni o‘z ixtirolari oldida bechoralik darajasiga tushirishi mumkin, agar inson o‘z faoliyatiga mas’uliyat bilan yondashmasa. Sun’iy intellektning kuchayishi va qaror qabul qilish jarayonlarida keng ishtiroki inson mas’uliyatini kamaytirmasligi, balki uni yanada muhimroq va keng qamrovli qilishi lozim. Texnologiyaning axloqiy jihatdan betaraf emasligini anglash va uni inson qadriyatlariga moslashtirish — bu XXI asr sivilizatsiyasining asosiy falsafiy va amaliy chaqiriqlaridan biridir.